

# O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi faoliyati to'g'risidagi axborotlarni olishga doir so'rovlarni ko'rib chiqish REGLAMENTI

---

1. Ushbu Reglament O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi faoliyati to'g'risidagi axborotlarni olishga doir so'rovlarni qabul qilish va ko'rib chiqish tartibini belgilaydi.
2. O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi to'g'risidagi axborotlarni olishga doir so'rovlarni qabul qilish va ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonuni hamda mazkur Reglament bilan belgilanadi.
3. Qo'mita faoliyati to'g'risidagi axborotlarni olishga doir so'rov – axborotdan foydalanuvchining Qo'mita faoliyati to'g'risidagi axborotlarni taqdim etish haqida Qo'mitaga va (yoki) uning mansabdor shaxslariga yo'llanadigan og'zaki yoki yozma shakldagi (shu jumladan elektron hujjat shaklidagi) talabidir.

## **O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi to'g'risidagi axborotlarni olishga doir so'rovlarni ko'rib chiqish**

4. Axborotdan foydalanuvchining so'rovi ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran ko'pi bilan o'n besh kunlik muddatda ko'rib chiqilishi kerak.
5. Ommaviy axborot vositasining Qo'mita faoliyati to'g'risidagi axborotlarni olishga doir, shuningdek mansabdor shaxslarning intervyusini tashkil etish to'g'risidagi so'rovi ko'pi bilan yetti kunlik muddatda ko'rib chiqiladi.
6. Agar axborotdan foydalanuvchining so'rovini ko'rib chiqish Qo'mita vakolatlariga kirmasa, so'rov so'ralayotgan axborotni taqdim etish vakolatiga ega tegishli organ ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida yuboriladi, axborotdan foydalanuvchi esa bu haqda xabardor qilinadi.
7. Rasmiy nashrlarda, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan (chop etilgan) yoxud rasmiy veb-saytlarda joylashtirilgan axborotlar so'ralganda davlat soliq xizmati organlari so'rovga beriladigan javobda so'ralayotgan axborot e'lon qilingan (chop etilgan) rasmiy nashrning, ommaviy axborot vositasining nomi, chiqarilish sanasida raqamini va (yoki) so'ralayotgan axborot joylashtirilgan rasmiy veb-saytning elektron manzilini ko'rsatgan holda havola berishi mumkin.
8. Agar Qo'mita olingan so'rov bo'yicha davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlari vakolatlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lmasa, axborotdan foydalanuvchiga so'rov ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida tegishli javob yuboradi.
9. So'rov rad etilgan taqdirda axborotdan foydalanuvchiga asoslantirilgan javob yuboriladi.

10 Qo'mita faoliyati to'g'risidagi axborotlarni olishga doir so'rovlarni qabul qilibolish, ularning hisobini yuritish, rahbariyatga taqdim etish, rahbariyatning munosabatbelgisiga asosan ijrochiga etkazish, ijrochi tomonidan murojaatlarni ko'rib chiqishnatijalari bo'yicha taqdim etilgan javobni murojaat mualliflariga yuborish uchunQo'mitaning umumiy bo'limi mas'ul hisoblanadi.

11. Qo'mita faoliyati to'g'risidagi axborotlarni olishga doir so'rovlar har ishkuni soat 09-00 dan 18-00 ga qadar qabul qilinadi, soat 18-00 dan so'ng kelib tushganmurojaatlar keyingi ish kunida kirim qilingan hisoblanadi.

12. Qo'mita faoliyati to'g'risidagi axborotlarni olishga doir so'rovlarni ko'ribchiqish natijalari bo'yicha Qo'mitaning mas'ul ijrochilari tomonidan tayyorlanganva rahbar yoki uning o'rinbosari tomonidan imzolangan javob xatlari Umumiy bo'limgataqdim etiladi.

13. Qo'mita umumiy bo'limi javob xatlarini belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazib,ularga chiqish raqamini qo'yib, belgilangan tartibda murojaat muallifiga yuboradi.

### **O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi to'g'risidagi axborotlarniolishga doir so'rovlarga qo'yiladigan talablar**

14. Qo'mita faoliyati to'g'risidagi axborotlarniolishga doir so'rovlar O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruviorganlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonunining 20-moddasi talablarigajavob berishi lozim.

### **Yakunlovchi qoidalar**

15. O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi faoliyati to'g'risidagi axborotlar olishga doir so'rovlarni qabul qilish va ko'rib chiqish tartibi bilanbog'liq nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

**[O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasining faoliyati to'g'risidagi axborotlar Ro'yxati](#)**

**[O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi rasmiy saytiga joylashtiriladigan axborotlar va axborotga mas'ullar Ro'yxati](#)**

**[O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi faoliyati to'g'risidagi axborotni olish uchun so'rovlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va qayta ishlash tartibi to'g'risidagi YO'RIQNOMA](#)**

**[Axborotdan foydalanuvchilarning O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari](#)**

**davlat qo'mitasiining ochiq hay'at majlislarida hozir bo'lishi tartibi to'g'risidagi NIZOM**

**Konfidensial axborotlar sirasiga kiradigan ma'lumotlar RO'YXATI**